



YANGI O'ZBEKITONDA RAHBAR AYOLLAR FAOLIYATINING IJTIMOY-
MADANIY ASOSLARI.

Jabborova Sayyoraxon Muhammadkobilovna

Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Karimova Saidabonu

Qo'chqarova Mohinur

Uraimova Muxlisa

Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta'lim va maxsus pedagogika yo'nalishi talabalari

Annotatsiya: maqolada Yangi O'zbekiston sharoitida rahbar ayollar faoliyatining ijtimoiy va madaniy asoslari tahlil qilinadi. Ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi o'rni, ularning yetakchilik salohiyatini rivojlantirish yo'nalishlari hamda gender tenglikni ta'minlash borasidagi islohotlar yoritilgan. Maqolada rahbar ayollarning ta'lim tizimidagi, xususan, maktabgacha ta'lim sohasidagi faoliyati misolida ularning ijtimoiy-madaniy faolligini oshirish istiqbollari tahlil qilingan. Tadqiqot jarayonida davlat hujjatlari, statistik ma'lumotlar va ilg'or xorijiy tajribalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: rahbar ayollar, Yangi O'zbekiston, ijtimoiy-madaniy asos, gender tenglik, boshqaruv, faollik, islohotlar.

Annotation: this article analyzes the socio-cultural foundations of women leaders activities in the context of New Uzbekistan. It highlights the role of women in state and social governance, the development of leadership potential, and the reforms aimed at ensuring gender equality. The paper examines the activities of women leaders in the field of education, particularly in preschool institutions, and explores prospects for enhancing their socio-cultural engagement. Based on the research results, several proposals for strengthening women's leadership were made.

Key words : women leaders, new Uzbekistan, socio-cultural foundation, gender-equality leadership, reforms, empowerment.

Аннотация: в данной статье анализируются социально-культурные основы деятельности женщин-руководителей в условиях Нового Узбекистана. Рассматриваются роль женщин в государственном и общественном управлении, развитие их лидерского потенциала и реформы направленные на обеспечение гендерного равенства. В работе также исследуется деятельность женщин-руководителей в системе образования особенно в сфере дошкольного воспитания и рассматриваются перспективы повышения их социально-культурной активности. На основе проведенных исследований предложены рекомендации по укреплению женского лидерства.

Ключевые слова: женщины-руководители, Новый Узбекистан, социально-культурные основы, гендерное равенство, лидерство, реформы, активность.

KIRISH



Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida jamiyat hayoting barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar jarayonida ayollarning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o'rnini tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda rahbar ayollar mamlakatimizning davlat boshqaruvi, ta'lim, tibbiyot, madaniyat, biznes va jamoatchilik sohalarida faol ishtirok etib, Yangi O'zbekiston konspeksiyasining amalda ro'yobga chiqishida muhim o'rin tutmoqda. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlarni qo'llab quvvatlash to'g'risida"gi Qonun, "Gender tenglik to'g'risida"gi Qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga, ularning rahbarlik salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qilmoqda. Ayollar rahbarlik lavozimlariga tayinlanayotgani, ularning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ulushi ortib borayotgani mamlakatda gender siyosati samarali yo'lga qo'yilganidan dalolat beradi. Xususan, Oliy Majlis Qonunchilik palatasida ayollar ulushi 32 foizini, mahalliy kengashlarda esa 27 foizni tashkil etayotgani bunga yaqqol misoldir. Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida ayollarni davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoyev rahbarligida ayollarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq manfaatlarini himoya qilish, rahbarlik lavozimlariga keng jalb etish borasida qator chora-tadbirlar amalga oshirilmogda. Shuningdek, 2019-yilda qabul qilingan "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi Qonun, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash to'g'risida"gi Prezident farmoni hamda "2022-2026-yillarda gender tenglikni ta'minlash strategiyasi" ayollar faolligini oshirishning huquqiy asoslarini belgilab berdi. Mazkur maqolada Yangi O'zbekistonda rahbar ayollar faoliyatining ijtimoiy-madaniy asoslari, ularning jamiyat rivojidagi o'rnini, yetakchilik salohiyati, boshqaruvdagi xususiyatlari hamda istiqboldagi yo'nalishlari tahlil qilinadi.

Moziyga nazar soladigan bo'lsak, tarixdan ma'lumki, O'zbekiston zaminida ayollar ham davlat boshqaruvida faol ishtirok etgan. To'maris, Bibixonim, Nodirabegim kabi ayollar nafaqat o'z davrining, balki butun insoniyat tarixining yetakchi siymolaridir. Ana shu tarixiy tajribalar Yangi O'zbekiston ayollarining bugungi rahbarlik salohiyatida o'z aksini topmoqda.

Massagetlar malikasi, O'rta Osiyo qadimgi ayol hukmdorlaridan biri To'maris davlat boshqarishdagi jasorati bilan tarixda o'chmas iz qoldirgan. Amir Temurning suyaklik rafiqasi Bibixonim davlat ishlarida unga maslaxatchi bo'lgan. U o'sha davrlarda siyosiy va madaniy hayotda faol ishtirok etgan ayol sifatida tarixda qolgan. Bu siymolar Yangi O'zbekiston ayollariga yorqin namuna bo'la oladi. Tarix davomida ayollar muhim ro'l o'ynagan bo'lsa, bugungi kunda ular bu an'anani davom ettirib, rahbarlik, siyosat, fan va ta'lim sohalarida yangi yutuqlarga erishmoqdalar. Tarixdagi sadoqatli, jasur va dono ayollar zamonaviy rahbar ayollarga o'ziga xos ilhom manbai bo'lib xizmat qilmoqda. Ularning izidan borayotgan ayollar esa yangi asrning yangicha tafakkur egalari, ilg'or jamiyatning tayanchi bo'lib bormoqda. Bugungi kunda rahbar ayol obrazi – faqatgina siyosat yoki boshqaruvda emas, balki har bir sohada o'z salohiyatini namoyon etayotgan, mustaqil fikrli, tashabbuskor, ilmi shaxs sifatida shakllanmoqda. Fikrimiz isboti bilan bunday yetuk, zamonaviy rahbar ayollarimizga ko'plab misollar keltira olamiz. Ta'lim sohasi daysizmi, sport, tibbiyot, tadbirkorlik har bir jabxada ularni ko'rishimiz mumkin. Bugungi



O'zbekiston siyosiy maydonida faoliyat yuritayotgan rahbar ayollar orasida Saida Shavkatovna Mirziyoyeva alohida o'rin tutadi. U zamonaviy davr ayolining rahbarlik salohiyatini, tashabbuskorligini va intellektual imkoniyatlarini ifoda etuvchi yorqin timsollardan biridir. Saida Mirziyoyeva 1984-yil 4-noyabrda Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida tug'ilgan. U Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, shuningdek Toshkent Davlat Yuridik universitetida tahsil olgan. O'z faoliyati davomida u nafaqat ta'lim sohasida, balki axborot siyosati va ijtimoiy hayotda ham o'z o'rnini topgan. 2019-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi direktor o'rinbosari lavozimida ishladi. Bu davrda u mamlakatda media sohasini rivojlantirish, axborot erkinligi va fuqarolarning ochiq jamiyatda so'z erkinligiga bo'lgan huquqlarini mustahkamlash yo'lida faol tashabbuslar bilan chiqdi. Uning faoliyati davomida OAV bilan davlat idoralari o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash, davlat imidjini mustahkamlash va ijtimoiy muammolarga e'tibor qaratish ishlari yo'lga qo'yildi. Keyinchalik u Prezident Administratsiyasida kommunikatsiya siyosati sektori rahbari, so'ngra Prezident birinchi yordamchisi lavozimida faoliyat yuritdi. 2025-yil 24-iyundan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi rahbari etib tayinlandi. Bu lavozim davlat boshqaruvidagi eng muhim strategik pozitsiyalardan biri bo'lib, Saida Mirziyoyeva bugungi kunda mamlakat siyosiy hayotida bevosita ishtirok etayotgan, muhim qarorlar qabul qilinishiga ta'sir ko'rsatayotgan shaxs sifatida tanilgan. Uning rahbarlik faoliyatida ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, gender tenglikni ta'minlash hamda media ma'daniyatini yuksaltirish masalalari ustuvor o'rin tutadi. Shuningdek u yoshlar ongida vatanparvarlik, ma'rifat va fuqarolik ma'suliyatini shakllantirish yo'lida ham faol yo'lga qo'yildi. Saida Mirziyoyeva shaxsida zamonaviy O'zbekiston ayolining yangi qiyofasi mujassam, u rahbarlikda qat'iyatli, ijtimoiy masalalarda faol, milliy qadryatlarga sodiq va dunyoviy qarashlarga ega ayol sifatida To'maris, Bibixonim, Nodirabegim siymolarining bugungi davrdagi davomchisi sifatida baholash mumkin. Ayollarimizning mehnatlari, yutuqlari haqida so'zlab zavq olasan kishi. Jamiyatda ayollarning nafaqat siyosiy, balki ijtimoiy sohalarda ham yetakchi o'rinni egallayotgani quvonarli, albatta. Ular orasida xalqaro miqyosida tan olingan sportchi, jamoatchi va endilikda rahbar sifatida faoliyat yuritayotgan Diyora Keldiyorovaning nomini alohida tilga olishimiz joiz. U o'z faoliyatini sport maydonlarida boshlab, O'zbekiston bayrog'ini jahon arenalarida baland ko'targan, ko'plab xalqaro musobaqalarda g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2024-yil Parij Olimpiadasida ayollar o'rtasida 52 kg vazn toifasida oltin medalni qo'lga kiritdi. Shuningdek O'zbekiston tarixida dyuzdo bo'yicha ilk marotaba birinchi ayol sportchi nomi bilan tarix zarvaraqlarida oltin xarflar bilan o'z ismi sharifini yozib qo'ydi. Ammo uning faoliyati sport yutuqlari bilangina chegaralanib qolmadi. 2024-yilda Diyora Keldiyorova O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligining Gender tengsizligi va bolalarga nisbatan zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha maxsus vakili lavozimiga tayinlandi. Bu tayinlov, avvalo, ayolning jamiyatdagi obro'-e'tiborini, insoniy qadryatlar uchun ma'suliyatini namoyon etadi. Diyora Keldiyorova o'zining yangi lavozimida yoshlar, xususan, qizlar orasida gender tengligini ta'minlash, sport orqali ularning ijtimoiy faolligini oshirish, oilaviy qadryatlar va farzandlar tarbiyasiga oid masalalarda targ'ibot ishlarini olib borish



bilan shug'ullanmoqda. U sport orqali erishgan shon shuhratini ijtimoiy, ma'naviy va huquqiy yo'nalishga sarf etayotgani bu zamonaviy rahbar ayol obrazini gavdalantiradi.

Jamiyatimizda jismoniy va ijtimoiy faollikni spot sohasidagi ayollarimiz ifodalasa, ta'lim sohasidagi rahbar ayollar ma'naviy, intellektual va tashkiliy yetakchilikni namoyon etadi. Ular orasida Xilola Umarova misolida zamonaviy rahbar ayolning yana bir qiyofasini ko'rishimiz mumkin. Hilola Umarova 1988-yil 9-avgustda tug'ilgan. Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatika Universitetida tahsil olgan. 2014-yildan boshlab INHA Universitetida faoliyat yuritgan. U yerda yetakchi mutaxassis, xalqaro hamkorlik bo'limi boshqaruvida prorektor lavozimlarini egallagan. 2022-yil 30-dekabrda Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri etib tayinlangan. 2025-yil iyul oylarida vazirlikdan ozod etilib Prezident Administratsiyasi rahbarining ta'limni isloh qilish bo'yicha o'rinbosari lavozimiga tayinlandi. U o'z faoliyatini xalqaro maqomini oshirishga bag'ishladi. Xilola Umarovanning faoliyati O'zbekiston ta'lim tizimini modernizatsiya qilish yo'lida olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning ajralmas qismiga aylandi. Uning rahbarlik faoliyati jamiyatning turli qatlamlarida ayollarning ijobiy roli va yetakchilik salohiyatini yaqqol ko'rsatib beradi.

Xulosa o'rnida Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2022-yil 22-yanvar kuni bo'lib o'tgan xalq deputatlari Buxoro Viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasidagi nutqini keltirishni ma'qul deb topdim. "Ishonaman- ayollar rahbar bo'lgan tumanlarda , viloyatlarda adolat bayrog'i boshqacha hilpiraydi. Biz hokimlikka saylangan rahbar ayollarimizga doim yordam beramiz, yelkadosh bo'lamiz. Bundan keyin ham katta-katta tashkilot va kompaniyalar rahbarligiga ayollarni tayinlash tashabbusi davom etadi." Yurtboshimizning bu ishonchi ayollarimizga katta kuch bag'ishlaydi. O'zbekistonda rahbar ayollar faoliyati-bu shunchaki lavozim yoki mansab emas, balki millat kelajagi, yoshlar tarbiyasi va jamiyat qadryatlarini mustahkamlashga qaratilgan ezgu harakatdir. Sport, ta'lim , siyosat va boshqa yo'nalishlardagi rahbar ayollar zamonaviy O'zbekistonning intellektual, ma'naviy va ijtimoiy yuksalishining asosiy tayanchlaridandir. Ularning tajribasi va faoliyati bugungi kunda yosh avlod, ayniqsa qizlar uchun ibrat va ilhom manbaiga aylanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent,2023
2. "Gender tenglikni ta'minlash to'g'risida"gi Qonun, 2019-yil 2-sentabr.
3. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-Toshkent
4. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi rasmiy sayti - "Diyora Keldiyorova maxsus vakili etib tayinlandi" yuz.uz.
5. Xalq ta'limi axborot portal –"Xilola Umarova-ta'lim tizimidagi islohotchi rahbar ayol", xalqtaliminfo.uz.
6. "O'zbekiston ayollari jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchilari"- O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo'mitasi axborot materiali, women.uz.
7. Mirziyoyev SH.M. (2022).Buxoro viloyatida o'tkazilgan yig'ilishdagi nutq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti. <https://president.uz>